

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN DERMATOVENEROLOGIYA
VA KOSMETOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/2025.27.12. Tib.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TIBBIYOT HODIMLARINING KASBIY MAKLAKASINI
RIVOJLANTIRISH MARKAZI**

ZAKIROV RUSTAM RUXULLAEVICH

**SOCH FOLLIKULALARI OG'IZCHALARI MIKROFIBROZLANISHI
BO'LGAN BEMORLARDA ANDROGEN ALOPECIYANI DAVOLASH VA
PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya

**tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundariyasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of phylosophy (PhD)

Zakirov Rustam Ruxullaevich

Soch follikulalari og'izchalari mikrofibrozlanishi
bo'lgan bemorlarda androgen alopeciyani davolash
va profilakrtikasini takomillashtirish 3

Закиров Рустам Рухуллаевич

Оптимизация терапии и профилактики андрогенной
алопеции у пациентов с микрофиброзированием
устьев волосяных фолликулов..... 27

Zakirov Rustam Ruxullaevich

Optimization of therapy and prophylaxis of androgenetic
alopecia in patients with microfibrosis of openings of
hair follicles..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 59

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN DERMATOVENEROLOGIYA
VA KOSMETOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/2025.27.12. Tib.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TIBBIYOT HODIMLARINING KASBIY MAKLAKASINI
RIVOJLANTIRISH MARKAZI**

ZAKIROV RUSTAM RUXULLAEVICH

**SOCH FOLLIKULALARI OG'IZCHALARI MIKROFIBROZLANISHI
BO'LGAN BEMORLARDA ANDROGEN ALOPECIYANI DAVOLASH VA
PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya

**tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT-2026

Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestsatsiya komissiyasida № V2020.4.PhD/Tib1529 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazida bajarilgan.
Dissertatsiyaning avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengashning veb-saytida (<https://dermatology.uz/>) va «ZiyoNet» Informatsion-o'quv portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Azimova Fotima Vaxidovna tibbiyot fanlari doktori
Rasmiy opponentlar:	Porsoxonova Delya Fazilovna tibbiyot fanlari doktori Fahrutdinova Sevara Sirojiddinovna tibbiyot fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy markazi qoshidagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12. Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «_____» _____ kuni soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazar tumani, Farobiy ko'chasi, 3-uy. Tel./faks: (+99878) 147-02-06, e-mail: niidiv@mail.ru)

Dissertatsiya bilan respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy markazining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (ro'yxatga olingan № _____). (Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazar tumani, Farobiy ko'chasi, 3-uy. Tel./faks: (+99878) 147-02-06.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «_____» _____ da kuni tarqatildi.
(2026 yil «_____» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

U.Yu. Sabirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

M.A. Mirsaidova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
Ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari doktori

A.B. Raxmatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
tibbiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda androgen alopesiya soch to'kilishining eng keng tarqalgan sababi hisoblanadi. Bu holat 70% erkaklarda va 40% ayollarda yuz berib, asosan bosh terisining peshona va tepa sohalarini zararlaydi. So'nggi yillarda butun dunyoda soch follikulasi tuzilmasi va funksiyasi buzilishi bilan kechuvchi surunkali soch kasalliklari bilan murojaat qilayotgan bemorlar soni ortib bormoqda. Ular orasida androgen alopesiya (AA) tarqalish darajasi va ijtimoiy-psixologik oqibatlari bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, bu kasallik erkaklarning 70 foizigacha va ayollarning 40 foizigacha uchraydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 50 yoshdagi erkaklarning kamida 50 foizi va 60 yoshdagi ayollarning shunga yaqin qismi androgen turdagi soch to'kilishidan aziyat chekadi. Klinik jihatdan androgen alopesiya peshona va tepa sohalarida sochlarning asta-sekin yupqalashuvi, qisqarishi va keyinchalik to'kilishi bilan kechadi, bu esa bemorlarda sezilarli kosmetik nuqson va hayot sifatining pasayishiga olib keladi. Kasallik patogenezining yetakchi bo'g'inlari soch follikulalarining miniatyurlashuvi, arrektor mushak tolalarining parchalanishi, yog' bezlarining giperplaziyasi hamda follikula og'izchalarining mikrofibrozanishi bilan birga mikrotsirkulyatsiya va to'qima almashinuvining buzilishi hisoblanadi.

Dunyo miqyosida androgen alopesiyaning patogenetik mexanizmlarini o'rganish va samarali davolash usullarini topishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Chet el olimlari (A. Perry, K. Skowron, M. El-Domyati, H.K. Yang va boshqalar) tadqiqotlarida mikrofibrozanish jarayoni yallig'lanish tsitokinlarining faollashuvi, apoptoz jarayonining buzilishi hamda matritsali metalloproteinazalar (MMP-2, MMP-9) va ularning to'qima ingibitorlari (TIMP-1, TIMP-2) o'rtasidagi muvozanatning buzilishi bilan kechishi aniqlangan. Ayniqsa, bosh terisining mikrobiotasi, xususan *Cutibacterium acnes* va *Staphylococcus aureus* bakteriyalarining mikroyallig'lanish va follikulaning degenerativ o'zgarishlaridagi roli alohida ta'kidlanadi. Zamonaviy dori vositalari, plazmoterapiya, peptid va lazer usullaridan foydalanilayotganiga qaramay, uzoq muddatli terapevtik samaradorlik har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Biriktiruvchi to'qimalardagi o'zgarishlarning yetarlicha korreksiya qilinmasligi kasallikning qaytalanishining asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish, sog'liqni saqlash tizimini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish, shuningdek, diagnostika va davolashning samarali usullarini ishlab chiqish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ularning ustuvor yo'nalishlari sifatida zamonaviy diagnostika va davolash usullarini joriy etish, sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, telemeditsinani rivojlantirish, kasalliklar reyestrini yaratish hamda dermatologik kasalliklarni kompleks davolashni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy etish belgilangan.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 oktyabrdagi PQ-4847-son «Sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvi tizimini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 12 noyabrdagi PQ-4891-son «Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»¹, 2021 yil 6 maydagi PQ-6221-son «Sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlari salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida»gi, 2021 yil 28 iyuldagi PQ-5199-son «Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2021 yil 11 noyabrdagi PQ-6-son «Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish sifatini yaxshilash va sog'liqni saqlash sohasida kadrlar salohiyatini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 31 iyuldagi 563-son «2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining dermatovenerologiya xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon horijiy jlimlari, K. Polak-Witka va hammualliflar soch follikulasining yuqori uchdan bir qismida bir nechta organizmlar topilganda mikroyallig'lanish mavjudligini ko'rsatishgan, jumladan, Cutibacterium turlari nazorat guruhida 12% ga nisbatan androgen alopesiya bilan og'rigan bemorlarning 58% da topilgan (Andria Constantinou, Polak-Witka et al., 2021). Ular tashqi stumullar va follikulyar epiteliya orqali o'zaro ta'sirlar mahalliy immun tizimiga, gomeostazga va soch o'sishi fazasining sikliga chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkinligini isbotlashgan. Bundan tashqari, mikroblarga qarshi preparatlar qo'llanilgandan so'ng soch o'sishining yaxshilanishi kuzatildi, bu bosh terisi mikrobiotasi ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tasdiqlaydi. M. Lousada va hammualliflar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda Actinobacteria, Firmicutes va Proteobacteria turlari sog'lom va AGA li bosh terisi mikrobiotasining 98% ni tashkil etishi ko'rsatilgan (M. Lousada et al., 2021). Jinghong Huang va hammualliflar Demodex turlari androgen alopesiya va seboreyal dermatit rivojlanishida rol o'ynashi to'g'risida fikrni ilgari surishgan (Jinghong Huang, 2019). Teri va soch kasalliklarida mikroob faollikning, xususan, teri zararlanishlarida ko'p uchraydigan Staphylococcus aureus ning ishtiroki androgen alopesiya patogenezi bo'yicha o'tkazilgan bir nechta tadqiqotlarda ko'rsatilgan (Constantinou A 2021, Park T., Kim H 2017, Watanabe K.2019). Teri mikrobiologiyasi metagenomika davriga kirib kelayotganligi tufayli ko'p o'lchovli yondashuvlar mikroorganizmlar va metabolizmning xo'jayin to'qimalariga ta'sirini o'rganishning yangi darajalariga imkon beradi. M. El-Domyati

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 maydagi PQ-5124-son «Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi» Qarori

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi PF-5124-sonli "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni

va boshqalar AGA patogenezida apoptoz va follikulyar proliferatsiya regulatsiyasida Bcl-2 rolini baholashgan (2010). Mualliflar Bcl-2 ekspressiyasi epidermisning bazal qatlamida va follikulyar dermal so'rg'ichlarda PCNA ekspressiyasi bilan juda muhim korrelyatsiya bilan ($P < 0,001$) joylashishini aniqladilar. Bemorlarda kallik sohalarida proliferatsiya tezligining astligi hamda doimiy perifollikulyar yallig'lanish infiltrati, bundan dermal limfotsitlarda Bcl-2 ning antiapoptotik ekspressiyasi dalolat beradi, follikulyar miniatyurizatsiyaga va fibrozga olib kelishi mumkin. K.S. Stenn va boshqalar (1994), G. Lindner va boshqalar (1997) tadqiqotlarida soch follikulasida Bcl-2 ning ekspressiyasi soch sikliga qat'iy bog'liqligi, intensiv proliferativ faollik fazalarida kuchliroq namoyon bo'lishi va uning regressiyasi paytida kamayishi aniqlangan. Bcl-2 soch o'sishi siklida follikulyar keratinotsitlarning regressiyasi va o'sishida muhim rol o'ynashi taxmin qilingan. Ehtimol, Bcl-2 ekspressiyasining nazorat qilinishi buzilishi androgen alopesiyada soch follikulalarining morfogenezig va siklikligiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Darhaqiqat, D.J. Veis va boshqalar (1993), S. Kamada va boshqalar (1995), K. Yamamura va boshqalar (1996) xabar berishganidek, Bcl-2 α va Bcl-2 $\alpha\beta$ yetishmagan sichqonlarda soch follikullari siklida sezilarli sekinlashuv kuzatilgan. Biroq, androgen alopesiyada juda muhim klinik ahamiyatga ega bo'lgan soch follikulalarida keratinotsitlar apoptozining molekulyar regulatsiyasi hali ham yetarli darajada aniqlanmagan.

MDH mamlakatlarida androgen alopesiya muammolari asosan dermatoendokrinologiya va patomorfologiya nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Rossiyalik tadqiqotchilar (Kondraxina I.N., Verbenko D.A., Zatevalov A.M., 2019; Tishkova Yu.L., 2021) kasallikning erkaklarda rivojlanishiga ta'sir etuvchi genetik va nogenetik omillarni aniqlab, bosh terisidagi androgen retseptorlarining giperaktivatsiyasi muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladilar. Qator tadqiqotlar (Savelyeva E.A., 2020; Menshikova T.V., 2022) alopesiyaning rivojlanishida yallig'lanish komponenti, mikrotsirkulyatsiya buzilishlari va oksidlovchi stressning roliga bag'ishlangan. Zamonaviy qarashlarga ko'ra, T-limfotsitlar infiltratsiyasi, tukli follikulalarning tuch hujayralarini faollashtirishi va degranulyatsiyasi mikro yallig'lanish rivojlanishiga hamda follikula og'izchalari fibrozlanishiga olib keladi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda MDH mamlakatlarida androgen alopesiyani tuzatishda past intensivli lazer nurlanishi va hujayra texnologiyalarini qo'llashga qaratilgan tadqiqotlar faollashdi, bu esa terapevtik imkoniyatlar doirasini kengaytirdi.

O'zbekiston olimlari ham androgen alopesiyaning patogenezida molekulyar-genetik tadqiqotlar va uni davolashning yangi usullaridan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, Arifov S.S., Gasanova L.T. (2002) androgen alopesiyani davolashda minoksidildan foydalanishni o'rganishgan. Vaisov A.Sh., Tashmatova N.B. (2013) o'z ishlarini androgen alopesiya terapiyasi bilan birgalikda soch ko'chirib o'tkazishning zamonaviy usullariga bag'ishlashgan, Abdullaev M.I., Muxamedjanova R.Sh. (2013) bolalarda o'choqli alopesiyani davolashning yangi usullariga bo'yicha tadqiqot o'tkazishgan. Sobirov U.Yu. va Azimova F.V. (2015) androgen alopesiya bilan og'rigan bemorlarda molekulyar-genetik tadqiqotlar o'tkazishgan va soch follikulalari siklining tirozinkinaza faollikli hujayra membranasi

retseptorlari ekspressiyasiga bog'liqligini isbotlashgan. Alopesiyaning chandiqsiz shakllarida soch follikulalari molekulalarining hujayralararo matriksi (TIMP1) markerlari aniqlangan va PRP ko'rinishidagi terapiyaning yangi samarali usuli ishlab chiqilgan.

Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar davom etmoqda, bu esa androgen alopesiya rivojlanishining yangi patogenetik mexanizmlarini aniqlash va uni davolashni takomillashtirish imkonini beradi. Androgen tipda soch to'kilishi va androgenlar ta'siri o'rtasidagi mavjud patofiziologik bog'liqliklar kasallikni medikamentoz davolashni ishlab chiqishning ajralmas qismiga aylangan. Davolash amaliyotida androgen alopesiyani bir nechta an'anaviy davolash usullari mavjud, ammo ularning samaradorligi cheklanganligicha qolmoqda. Shu sababli, androgen alopesiyani nojo'ya ta'siri kam xavfsiz va samarali davolash usulini ishlab chiqish ma'qul, bu kasallikning retsidivlanishini kamaytirish orqali androgen alopesiya bilan og'rigan bemorlarga sezilarli foyda keltiradi va ularning hayot sifatini yaxshilaydi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini oshirish Markazi ilmiy-tadqiqot ish rejasiga kiritilgan.

Tadqiqot maqsadi: Boshning sochli qismi terisida soch follikulalarining mikrofibrozin bartaft etish va oldini olish orqali androgen alopesiyani davolashni optimallashtirish.

Tadqiqot vazifalari:

qon plazmasida 3-alfa-androstandiol-glyukuronid (3-alfa-adiol-G) metabolitini o'rganish orqali boshning sochli qismi terisida degidrotetosteronning to'qimalardagi faollik darajasini aniqlash;

androgen alopesiyada soch follikulalari atrofida mikroyallig'lanishning birlamchi trigger omili sifatida mikroflorasining rolini aniqlash;

androgen alopesiyada antiapoptotik oqsil Bcl-2 va matriks metalloproteinazalarning to'qima ingibitorlari faolligining soch follikulasining mikrofibrozanish jarayonlariga ta'sirini aniqlash;

kasallik rivojlanishining aniqlangan yangi patogenetik mexanizmlarini hisobga olgan holda androgen alopesiyani davolashni optimallashtirish va kasallikning retsidivlanishini va soch follikulalarining «mikrofibrozin» kamaytirish maqsadida profilaktika usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti «Medion» klinikasida ambulator davolanishni olgan androgen alopesiya bilan og'rigan 116 nafar erkak bemor hamda yoshi va jinsi bo'yicha mos bo'lgan 20 nafar nazorat guruhi kishilari tashkil qildi.

Tadqiqot predmeti sifatida mikroflora tarkibini aniqlash uchun boshning sochli qismi terisidan po'stloqchalar, TIMP, 3-alfa-androstandiol-glyukuronid (3-alfa-adiol-G) ni o'rganish uchun qon zardobi va Bcl-2 ni o'rganish uchun boshning sochli qismi terisidan biopsiya materiali olindi.

Tadqiqot usullari. Umumklinik, immunogistokimyoviy, immunoferment, instrumental va statistik tadqiqot usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

androgen alopesiya bilan ogʻrigan bemorlarning qonida glyukuronid-3-alfa-adiol-G-androstendiolning sezilarli darajada yuqori darajasi kuzatilishi ($p<0,001$) va sochlarning miniaturizatsiyasi va telogen bosqichidagi sochlar sonining koʻpayishiga olib kelishi isbotlandi;

androgen alopesiya bilan ogʻrigan bemorlarning terisida oʻrganilayotgan guruhdagi bemorlarda Bcl-2 ekspressiyasining va TIMP faolligining ($p<0,001$) sezilarli darajada kamayishi tufayli soch follikulalari apoptozi va mikrofibrozanishini kuchaytirishi isbotlandi;

tranzitor flora vakillari *Propionibacterium acnes* ($p<0,001$), *Staphylococcus aureus* ($p<0,001$), *Staphylococcus epidermidis* ($p<0,001$), *Candida* spp ($p<0,001$) va *Malassesia* spp ($p<0,001$) androgen alopesiya bilan ogʻrigan bemorlarda sezilarli darajada oshishi, bu esa perifollikulyar yalligʻlanish va soch follikulalarining mikrofibroza olib kelishi isbotlangan;

androgen alopesiyani davolash Alma Lasers kompaniyasining Harmony XL erbiyli lazeridan foydalangan holda ishlab chiqildi, bu oʻzining yuqori samaradorligini isbotladi – soch oʻsishini 2 barobarga va soch diametrini 1,8 barobarga oshirdi, boshning sochli qismi terisida soch follikulalarining mikrofibrozi va mikroyalligʻlanishini bartaraf etishi hisobiga patologik jarayonning retsidivlanish chastotasini 1,7 barobarga kamaytirishi aniqlandi.

Tadqiqotni amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

androgen alopesiya bilan ogʻrigan bemorlarda soch follikulalarining mikrofibrozi va mikroyalligʻlanishini aniqlash uchun boshning sochli qismi terisi diagnostikasini (videotrixodermatoskopiya va mikroskopiya) oʻtkazish kerakligi asoslangan, bu nafaqat «telogen» fazadagi sochlar miqdorining koʻpayishiga va «anagen» fazasining qisqarishiga yordam beradi, shuningdek, yangi soch oʻsishiga yoʻl qoʻymaydi.

androgen alopesiyani samarali davolash uchun anʼanaviy terapiya fonida Alma lasers dan Harmony Xl erbiyli lazerini qoʻllash kerakligi asoslangan, bu esa soch follikulalarining mikroyalligʻlanishi va mikrofibrozanishini bartaraf etish orqali soch follikulalari toʻqimasini remodulyatsiyasiga olib kelishi isbotlandi, anagen bosqichida soch oʻsishini 2 baravar oshirdi va uni uzaytirdi, shuningdek, kasallikning retsidivlanish sonini kamaytirdi va ushbu patologiyaga ega bemorlarning hayot sifatini oshirdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qoʻllanilgan nazariy yondashuv va usullarning toʻgʻriligi, oʻtkazilgan tadqiqotning aniqligi, androgen alopesiya bilan ogʻrigan bemorlar sonining yetarliligi, statistik tadqiqot usullari bilan ishlov berish, olingan natijalarni xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar natijalari bilan taqqoslash; xulosa, olingan natijalarni vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati androgen alopesiya rivojlanishida patologik jarayonning kuchayishi bilan ortib boruvchi va toʻqimalarning

remodulyatsiyasiga va, keyinchalik, yangi soch o'sishiga yo'l qo'ymaydigan soch follikularining mikroyallig'lanishi va mikrofibrozining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi patogenetik mexanizmlarni kashf qilinishi bilan belgilanadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari to'qimalarning remodulyatsiyasiga olib keluvchi soch follikulari atrofida yallig'lanish jarayonining rivojlanishida antiapoptotik protein Bcl-2, TIMP matriks metalloproteinazalarining to'qima ingibitori, boshning sochli qismi terisining mikroba tarkibining ma'lumotlilikini, androgen alopesiya bilan og'rigan bemorlarda glyukuronid -3-alfa-adiol-G-androstendiol darajasining boshning sochli qismi terisida androgenlar metabolizmining kuchayishidagi rolini ta'kidlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati androgen alopesiyaning maqsadli diagnostikasini takomillashtirish va ishlab chiqilgan yangi davolash usulini optimallashtirishdan iborat bo'lib, bu uning samaradorligini oshirish, patologik jarayonning retsidivlanishini kamaytirish va bemorlarning hayot sifatini oshirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Androgen alopesiya bilan og'rigan erkak bemorlarda apoptoz, hujayradan tashqari matriks tizimi, testosteronning to'qimalardagi faolligi va soch follikulari atrofidagi «mikroyallig'lanish» tadqiqotlari natijalari asosida «Androgen alopesiyaning davolashda Erbiyli lazer» uslubiy tavsiyanomasi tasdiqlandi (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi ilmiy texnik kengash tomonidan 2025 yil 20 iyun 20/13son bilan tasdiqlangan). Ushbu uslubiy tavsiyanoma belgilangan tadqiqot algoritmidan foydalangan holda androgen alopesiyada optimallashtirilgan davolashni buyurish uchun tavsiya etiladi, bu nafaqat davolash samaradorligini oshiribgina qolmay, balki soch follikularining mikroyallig'lanishi va mikrofibrozining patologik jarayonlarini kamaytirish orqali kasallikning retsidivlanishini oldini olishga yordam berdi.

birinchi ilmiy yangilik: androgen alopesiya bilan og'rigan bemorlarda androstenediol glyukuronid-3-alfa-adiol-G ni tekshirishlar kasallikning patogenezida androgenlarning hal qiluvchi rolini isbotladi va kasallikning og'irlik darajasi ortishi bilan uning sezilarli darajada oshishini ko'rsatdi - M3 tipida - $14,6 \pm 1,7$ pg / ml ($p < 0,001$), U1 tipida - $26,5 \pm 2,5$ pg/ml ($p < 0,001$), ammo C2-C3 tipida bu androgenni pasayish tendentsiyasi kuzatildi - $8,7 \pm 1,4$ pg/ml hamda Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Buxoro viloyat hududiy filialining 2022 yil 25 apreldagi №42/1-sonli buyrug'iga muvofiq va Toshkent shahridagi viloyat teri-tanosil kasalliklari dispanserining 2022-yil 5-apreldagi №47-sonli buyrug'iga muvofiq amaliy sog'liqni saqlashda klinik amaliyotga joriy qilingan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi** shundan iboratki, androgen alopesiya bilan og'rigan bemorlarda tavsiya etilgan androgenlarning to'qimalardagi darajasini o'rganish soch follikulari atrofidagi «mikroyallig'lanish» ni kamaytiradi, androgen alopesiyaga erta tashxis qo'yish va davolash samaradorligini oshiradi. **Iqtisodiy samaradorligi:** androgen alopesiya bilan og'rigan bemorlarning qonida

androstendiol glyukuronid - 3-alfa-adiol-G- ni o'rganish boshning sochli qismi terisida androgenlar metabolizmining yuqori darajasini erta aniqlashga yordam beradi, uning narxi har bir bemorga yiliga 1 500 000 so'm, androstendiol glyukuronid - 3-alfa-adiol-G- narxi 680 000 so'mni tashkil qiladi. Androgen alopesiya diagnostika usulining xarajatlarini kamaytirish orqali ambulator davolanish uchun byudjetdan xarajatlar ham 2,2 barobar kamayadi. **Xulosa:** bosh terisidagi androgenlar darajasining ko'rsatkichi sifatida androstenediol glyukuronid- 3-alfa-adiol-G- ko'rsatkichlarining o'zgarishiga asoslangan yangi diagnostika usulidan foydalanish byudjet mablag'lari hisobidan davolash xarajatlarini 2,2 barobar kamaytirish va terapiyaning yangi usuli samaradorligini oshirish orqali xarajatlarni minimallashtirish imkonini berdi.

Ikkinchi ilmiy yangilik: androgen alopesiya bilan og'rigan bemorlarda antiapoptotik protein Bcl-2 ekspressiyasining patologik jarayonning kuchayishi bilan sezilarli darajada pasayishi – C2-C3 tipida past (20%) og'irlikdan va o'rtacha (80%) og'irlikkacha, M3 turida salbiydan (37,5%) va past (62,5%) 73 964 500irlikkacha va U1 turida 100% salbiygacha, patologik jarayonning kuchayishida soch follikulasi regressiyada Bcl-2 ning patogenetik rolini ko'rsatadi, bu Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Buxoro viloyat hududiy filialining 2022 yil 29 apreldagi №42/1-sonli buyrug'iga muvofiq va Toshkent shahridagi viloyat teri-tanosil kasalliklari dispanserining 2022-yil 29-apreldagi №47-sonli buyrug'iga muvofiq amaliy sog'liqni saqlashda klinik amaliyotga joriy qilingan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:** androgen alopesiya bilan og'rigan bemorlarda antiapoptotik oqsilni o'rganish uchun tavsiya etilgan usul soch follikulalarining mikrofibrozini oldini oladi va androgen alopesiyani davolash samaradorligini oshiradi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:** antiapoptotik Bcl-2 oqsili va matritsali metalloproteinaza ingibitorlari darajasini pasaytirish tufayli soch follikulasi atrofidagi to'qimalarning remodulyatsiyasini oldini olishdan iborat bo'lib, yangi kompleks davolash yordamida ambulator sharoitda davolash hisoblangan yillik iqtisodiy samaradorlik 19 300 000 so'mni tashkil etgan, yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlarni o'rganmagan holda va soch follikulalari to'qimasini remodulyatsiyasi rivojlanishida an'anaviy davolash usulida – 34 200 000 so'm. **Xulosa:** antiapoptotik oqsil Bcl-2 va matritsali metalloproteinaza ingibitorlari darajasining o'zgarishi soch follikulalari to'qimalarining qayta tuzilishiga ta'sir ko'rsatishi natijasida kasallikni davolash samaradorligini oshirdi va ambulator davolanish uchun byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni 1,7 ga qisqartirish imkonini berdi.

uchinchi ilmiy yangilik: mikrob floraning soch follikulalari atrofidagi «mikroyallig'lanishda», keyinchalik soch follikulalarining atrofiyasiga olib kelishdagi roli aniqlangan – Propionibacterium acnes ($p<0,001$), Staphylococcus aureus ($p<0,001$), Staphylococcus epidermidis ($p<0,001$), Candida spp. ($p<0,001$) va Malassesia spp ($p<0,001$), ammo kasallikning shakli va davomiyligidan, shuningdek, bemor yoshidan qat'iy nazar, ular orasida yetakchi o'rinni

Propionibacterium acnes (25,9% -79,2%) egallaydi. Natijalar Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Buxoro viloyat hududiy filialining 2022 yil 29 apreldagi №42/1-sonli buyrug'iga muvofiq va Toshkent shahridagi viloyat teri-tanosil kasalliklari dispanserining 2022-yil 29-apreldagi №47-sonli buyrug'iga muvofiq amaliy sog'liqni saqlashda klinik amaliyotga joriy qilingan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi:** androgen alopesiya bilan og'rigan bemorlarda mikrobl florani o'rganish uchun tavsiya etilgan usul soch follikulalarining mikrofibrozini oldini oladi va androgen alopesiyani davolash samaradorligini oshiradi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi:** androgen alopesiya rivojlanishining yangi patogenetik mexanizmini aniqlashdan iborat bo'lib, u "mikroyallig'lanish" da mikrobl floraning hal qiluvchi rolini belgilab berdi, uning o'z vaqtida aniqlanishi soch follikulalari atrofida mikroyallig'lanish va mikrofibrozning shakllanishiga to'sqinlik qiladi va ambulator davolanish muddatini 90 kundan 60 kungacha qisqartiradi va bu bilan kasallikni davolash xarajatlarini 34 200 000 so'mdan 22 800 000 so'mgacha kamaytiradi. **Xulosa:** bosh terisidagi mikrobl floraning faolligini aniqlash va bemorlarni to'g'ri davolash taktikasi shaklida androgen alopesiya rivojlanishining yangi patogenetik mexanizmlarini aniqlash ambulator davolanishga xarajatlarini 1,5 baravar tejash imkonini berdi.

to'rtinchi ilmiy yangilik: Alma lasers dan Harmony Xl erbiyli lazeridan foydalangan holda androgen alopesiyani davolashni muvaffaqiyatli optimallashtirish an'anaviy terapiyaga nisbatan yuqori samaradorlikni ko'rsatdi - 2 baravar, soch o'sishida ijobiy natijalar ko'rsatkichlari («sezilarli yaxshilanish» va «yaxshilanish» 3 baravarga oshdi), soch diametrining 1,8 baravar oshdi va an'anaviy terapiya olgan bemorlarga nisbatan patologik jarayonning retsidivlanishi 1,7 baravar kamaydi. Natijalar Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Buxoro viloyat hududiy filialining 2022 yil 29 apreldagi №42/1-sonli buyrug'iga muvofiq va Toshkent shahridagi viloyat teri-tanosil kasalliklari dispanserining 2022-yil 29-apreldagi №47-sonli buyrug'iga muvofiq amaliy sog'liqni saqlashda klinik amaliyotga joriy qilingan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi** shundan iboratki, androgen alopesiya bilan og'rigan bemorlar uchun Alma lasers dan Harmony Xl erbiyli lazeri bilan davolashning tavsiya etilgan usuli soch follikulalari mikrofibrozining oldini oladi va androgen alopesiyani davolash samaradorligini oshiradi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi** soch follikulasining mikrofibroz ko'rsatkichlarini o'zgartirishga asoslangan tavsiya etilgan davolash algoritmini amalga oshirishdan olinadigan yillik iqtisodiy samarada hisoblangan – 85 554 000 so'm va ishlab chiqish va joriy etish uchun iqtisodiy harajatlar – 736945S0 so'mni tashkil etadi. **Xulosa:** Alma lasers dan Harmony Xl erbiyli lazeridan foydalangan holda androgen alopesiyani davolashni muvaffaqiyatli optimallashtirish ko'rsatkichlari davolashning yangi usuli samaradorligini oshirish bilan birga byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni to'g'ri taqsimlashga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy materiallari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Ilmiy kengashining majlisida bayon qilingan va muhokamadan o'tkazilgan. Tadqiqot natijalari ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining nashr qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyasining (PhD) asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan 6 ta jurnallarda maqolalar, shu jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 5 bob, jumladan, adabiyotlar sharhi va xususiy tadqiqotlari boblari, xotima, xulosalar, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 128 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tekshirishlarni dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tekshirishni maqsadi va vazifalari, ob'ekti va mazmuni shakllantirilgan, ushbu tekshirishlarni respublikani ilm va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, natijalarni ilmiy yangiligi va ilmiy-amaliy ahamiyatligi bayon etilgan, tekshirish natijalarini amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumot keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Androgen alopesiyada soch follikulalari og'izchasi mikrofibrozi rivojlanishining patogenetik mexanizmlari va uni davolashni takomillashtirish**» nomli birinchi bobi 4 kichik bo'limdan iborat, «Zamonaviy bosqichda androgen alopesiyaning etiopatogenetik jihatlari» nomli birinchi kichik bo'limda androgen alopesiya etiopatogenezi, tarqalganligi, klinik shakllarining xilma-xilligi bo'yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning so'nggi 10-15 yildagi adabiyot ma'lumotlari tavsifi berilgan. «Androgen alopesiyada soch follikulalari atrofida mikroyallig'lanishning birlamchi trigger omili sifatida mikrofloraning roli» nomli ikkinchi kichik bo'limda turli mamlakatlar tadqiqotchilarining boshning sochli qismi terisining tranzitor mikroflorasining normada va patologik sharoitlarda soch follikulalari atrofida yallig'lanish jarayonida ishtirok etishi haqidagi ma'lumotlari keltirilgan. «Antiapoptotik oqsil Bcl-2 va matriks metalloproteinazalari to'qima ingibitorlarining faolligini androgen alopesiyada soch follikulasining mikrofibrozanish jarayonlariga ta'siri» nomli uchinchi kichik bobida turli mamlakatlar olimlari tomonidan alopesiyaning turli shakllarida soch to'kilishida to'qimalarni remodulyatsiyasiga olib keluvchi apoptoz omillari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlari natijalari bayon etilgan. «Androgen alopesiyani kasallikning patogenetik mexanizmlarini hisobga olgan holda davolash va uni oldini olish usullari» nomli to'rtinchi kichik bo'limda turli xil davolash usullari, shu jumladan hujayrali texnologiyalar tavsifi berilgan, ammo bugungi

kunda kasallikni davolash samaradorligi har doim ham kerakli samaraga olib bormaydi, jumladan, patologik jarayonning ko‘p retsidivlanishi kuzatiladi. Binobarin, androgen alopesiyada soch follikularining kirish qismi mikrofibrozi rivojlanishining yangi patogenetik mexanizmlarini aniqlash va uni davolashni takomillashtirish keyingi tadqiqotlarni talab qiladigan dolzarb muammodir.


« **Tadqiqot materiallari va usullari**» nomli ikkinchi bobda klinik material tahlili va olib borilgan tadqiqot usullari (umumklinik, immunogistokimyoviy, ummunoferment, instrumental, mikrobiologik va statistik) batafsil tavsiflangan. PCHПМЦДВнК МЗ РУз va «Medion» klinikalarida statsionar va ambulator davolangan 19 yoshdan 53 yoshgacha bo‘lgan androgen alopesiya bilan og‘rigan jami 116 nafar erkak bemor tekshirildi. Androgen alopesiyaning klinik spetsifik tasnifiga (BASP, 2007) ko‘ra, C2-C3 turi 13 (11,2%) bemorda qayd etilgan (1-rasm), ularda boshning sochi qismi terisining peshona va tepa sohalarida soch to‘kilishi qayd etilgan. Androgen alopesiya bilan 30 yoshgacha bo‘lgan 26 (22,4%) bemorlar, 31-40 yoshda - 48 (41,4%), 41-53 yoshda - 42 (36,2%) bemorlar bo‘ldi (2-rasm). Androgen alopesiya bilan og‘rigan bemorlarning kasallikning davomiyligiga ko‘ra taqsimlanishi bo‘yicha ma’lumotlar quyidagilarni ko‘rsatdi: 6 kishida (5,2%) kasallikning davomiyligi 1 yilgacha, 56 kishida (48,3%) 1 yildan 5 yilgacha, 43 kishida (37%) - 5 yildan 10 yilgacha va 11 kishida (9,5%) - 10 yildan ortiq kuzatilgan.

Androgen alopesiya rivojlanishini qo‘zg‘atuvchi omillaridan asosiylari asab tizimining haddan tashqari zo‘riqishi (72,4%), SARS 19 va vaksinatseyasi (48,3%) sifatida qayd qilindi (3-rasm). Yo‘ldosh patologiya asosan surunkali tonzillit (40,5%) va diffuz bo‘qoq (50%) bilan ifodalandi (4-rasm).


Biz kuzatgan androgen alopesiya bilan og‘rigan erkak bemorlarning klinik materialini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, 31-40 yoshdagi erkaklar ustunlik qildi - 48 (41,4%), BASP tasnifiga ko‘ra, M3 tipi (53,5%) va kasallik davomiyligi asosan 1 yildan 5 yilgacha (48,3%) qayd etilgan.




1-rasm. BASP tasnifiga ko‘ra androgen alopesiya turlari



2-rasm. Bemorlarning yoshi bo‘yicha taqsimlanishi




3-rasm. Androgen alopesiya rivojlanishining qo'zg'atuvchi omillari



4-rasm. Androgen alopesiya bilan og'rikan bemorlarning yo'ldosh patologiyasi

Androgen alopesiya bilan og'rikan erkak bemorlarning videotrixodermoskopiya kasallikning og'irlik darajasi oshgani sari boshning sochli qismi terisi tepa sohasida soch zichligi sezilarli darajada kamayishini ko'rsatdi – $119,8 \pm 7,4\%$ dan $88,5 \pm 2,7\%$ gacha va telogen bosqichidagi sochlarning $34,9 \pm 0,4\%$ dan $72,8 \pm 9,4\%$ gacha ortishi aniqlandi. Fototrixogramma androgen alopesiyaning mavjudligini isbotladi, bunda vellus sochlarining ulushi sezilarli darajada oshganligi aniqlandi – $42,8 \pm 8,3\%$ dan $57,2 \pm 10,4\%$ gacha, soch follikulalarining trixoskopiya esa kasallikning og'irlik darajasi oshishi bilan sochlarning atrofiyasi $37,5 \pm 4,2\%$ dan $78,4 \pm 11,7\%$ gacha oshishini ko'rsatdi. Androgen alopesiyada soch follikulalari atrofida mikroyallig'lanishli patologik jarayon follikulalarning atrofiyasiga olib keladi va trixodermatoskopiya ob'ektivni 200 marta kattalashtirishda «oq dog'lar» hosil bo'ladi. Bizning

tadqiqotimizda kasallik og'irlik darajasi kuchayishi bilan atrofiyalashgan soch follikulalarining («oq dog'lar») sezilarli ko'payishi va atrofiyalashmagan soch follikulalarining («sariq dog'lar») kamayishi kuzatildi (5-rasm).



5-rasm. Androgen alopesiyaning trixoskopik mezonlari

Bizning tadqiqotimizda quyidagi usullardan foydalanildi:

Androgen alopesiya bilan og'rgan bemorlarni boshining sochli qismi terisining videotrixodermatoskopiyasi - X60 va X200 linzalari bo'lgan Aramo-SG (Koreya) videokamerasi va Trichoscience diagnostika dasturi yordamida boshining sochli qismi terisining kasalliklarini zamonaviy diagnostikasi nafaqat aniq tashxis qo'yish va follikulalar atrofiyasi darajasini ishonchli tavsiflash, balki o'tkaziladigan davolash samaradorligini bashorat qilish va kasallik monitoringini olib borish uchun zarurdir.

Androgen alopesiya bilan og'rgan bemorlarning qonida matriks metalloproteinaza ingibitorlari va androstendiol glyukuronidni immunoferment usuli yordamida o'rganish avtomatlashtirilgan «HumareaderSingle» apparati yordamida o'tkazildi. Tahlil natijalari spektrofotometrik tarzda 450 nm to'lqin uzunligida hisobga olindi. O'lchovlar reaksiya to'xtatilgandan so'ng darhol amalga oshirildi. Androstenediol glyukuronid (androstenediol glucuronide (3a-diol G), 5a-androstane-3a-17b-diol-glucuronide) darajasi immunoferment tahlil (Labor Diagnostika nord GmbH & Co.KG to'plami) yordamida ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga muvofiq qon zardobida o'lchandi. Tadqiqot avtomatik mikroplanshet fotometrda o'tkazildi. Qondagi androstenediol glyukuronid darajasi 1 ml da nanogrammlarda ifodalandi, aniqlanish chegarasi <0,25 ng/ml.

Androgen alopesiya bilan og'rgan bemorlarda antiapoptotik protein Bcl-2 ni immunogistokimyoviy o'rganish «Mediopharm» xususiy laboratoriyasida umumiy qabul qilingan usul bo'yicha, poli-L-lizin bilan qoplangan shishaga fiksatsiyalangan soch follikulasining seriyali paraffin kesmalarida o'tkazildi. Anti-


apoptotik protein Bcl-2 ekspressiyasi real vaqtda PZR usuli bilan aniqlandi. Anti-apoptotik protein Bcl-2 ni avtomatik Link platformasida immunogistokimyoviy o'rganish uchun reagentlar: monoklonal Bcl-2 antitelolari, NVision FLEX+ deteksiya tizimi, Sichqoncha, yuqori pH Foydalanishga tayyor NVision FLEX antitelolarni suyultiruvchi eritma. NVision TM FLEX antigenini tiklash uchun eritma. Past pH.

Bosh terisi mikroflorasini o'rganish uchun mikrobiologik usulda Williamson va Kligmanga ko'ra yuvish usulidan foydalanildi, bu usul ozuqaviy bulonda namlangan steril paxta tamponlaridan foydalanishga asoslangan. Materiallar androgen alopesiya bilan og'rgan bemorlarning boshining sochli qismi terisining peshona-tepa-ensa sohalaridan to'plandi. Anaerob floraning umumiy miqdori 5% qonli agarda ekish yordamida hisoblandi. Ajratilgan mikroorganizmlar Berdji identifikatsiyalash usuli yordamida aniqlandi. Natijalarni qayd qilishda modifikatsiyalangan usuldan foydalanilib, bakteriyalar o'sishi qayd etilgan oxirgi suyultirish ma'lumotlariga ko'ra amalga oshirildi.


Tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash Pentium IV kompyuterida «Excel Office – 2010» dasturida Styudent t-mezonini hisoblash orqali variatsion statistikaning standart usullaridan foydalangan holda amalga oshirildi. O'rtacha ko'rsatkichlar $M \pm m$ (o'rtacha $\pm$ o'rtacha xatolik) sifatida taqdim etildi.

Xususiy tadqiqotlar dissertatsiyaning III va IV boblarida tavsiflangan. Dissertatsiyaning «Androgen alopesiya bilan og'rgan bemorlar boshining sochli qismi terisida apoptozni o'rganish» deb nomlangan uchinchi bobida androgenetik alopesiya bilan og'rgan 20 nafar erkak bemorlarda boshining sochli qismi terisidagi Bcl-2 o'rganildi, binobarin androgen alopesiyada mitoxondrial apoptoz yuz beradi. C2-C3 tipidagi androgen alopesiya bilan og'rgan bemorlarda Bcl-2 retseptorining salbiy reaksiyasi kuzatilmadi (0%), past ijobiy reaksiya (1% dan 20% gacha) - 1 holatda (20%), o'rtacha ijobiy reaksiya (21% dan 50% gacha) 4 ta holatda (80%) aniqlandi (6-rasm). M3 tipidagi androgen alopesiya bilan og'rgan bemorlarda Bcl-2 retseptorining salbiy reaksiyasi (0%) 3 holatda (37,5%) va 5 holatda (62,5%) past ijobiy reaksiya (1% dan 20% gacha) kuzatildi (7-rasm). U1 tipidagi androgen alopesiya bilan og'rgan bemorlarda Bcl-2 retseptorining salbiy reaksiyasi (0%) barcha 7 holatda (100%) kuzatildi (8-rasm).


Shunday qilib, androgen alopesiya bilan og'rgan bemorlarda antiapoptotik protein Bcl-2 ekspressiyasini o'rganish patologik jarayonning og'irligi oshgan sari uning pasayishini ko'rsatdi – C2-C3 tipida pastdan (20%) va o'rtachagacha (80%), M3 tipida salbiydan (37,5%) va pastgacha (62,5%), U1 tipida 100% salbiy. O'tkazilgan tadqiqotlar anti-apoptotik oqsil Bcl-2 ning androgen alopesiyada soch follikulasining regressiyasidagi patogenetik rolini tasdiqladi, agar ular bo'lmasa mitoxondriyada membrana potentsialining barqarorligi o'zgaradi va ulardan mitoxondrial kaspaza faollashtiruvchilar chiqarishga imkon yaratiladi, bu esa mitoxondrial apoptozga olib keladi, bu ayniqsa androgen alopesiyaning U1 tipi bilan og'rgan bemorlarda aniq namoyon bo'ladi.



6-rasm. C2-C3 da Bcl-2 retseptorlari ekspressiyasini immunogistokimyoviy tekshirish



7-rasm. M3 da Bcl-2 retseptorlari ekspressiyasini immunogistokimyoviy tekshirish




8-rasm. U1 da Bcl-2 retseptorlari ekspressiyasini immunogistokimyoviy tekshirish

Dissertatsiyaning «**Androgen alopesiya bilan ogʻrigan bemorlarda degidrotosteronning toʻqimalardagi faolligi, hujayradan tashqari matriks tizimi va mikroyalligʻlanish**» deb nomlangan toʻrtinchi bobi 2 kichik boʻlimdan iborat. «Androgen alopesiya bilan ogʻrigan bemorlarda 3-alfa-androstanediol metabolitini oʻrganish yordamida hujayradan tashqari matriksning faolligini va testosteronning degidrotosteronga oʻtishi uchun toʻqimalardagi faollik darajasini oʻrganish» nomli kichik boʻlimi hujayralararo matriks faolligining ishonchli koʻrsatkichi sifatida matriks metalloproteinazalarining toʻqima ingibitorini (TIMP1) oʻrganishga va periferik toʻqimalarda androgenlar metabolizmining koʻrsatkichi hisoblanuvchi zardobdagi 3-alfa-androstandiol-glyukuronidni (3-alfa-adiol-G) oʻrganishga bagʻishlangan. Androgen alopesiya bilan ogʻrigan bemorlarda soch follikulalari toʻqimasini remodulyatsiyasi koʻrsatkichi sifatida TIMP1 matriks metalloproteinazalari ingibitorni oʻrganish ularni kasallikning ogʻirlik darajasi ortishi bilan sezilarli kamayishini koʻrsatdi. Shunday qilib, androgen alopesiyaning C2-C3 tipi boʻlgan bemorlarda TIMP1 kontsentratsiyasi $2,01 \pm 0,18$ pg/ml ($p < 0,001$), M3 tipi boʻlgan bemorlarda – $1,49 \pm 0,022$ pg/ml ($p < 0,001$) va U1 tipi boʻlgan bemorlarda – $0,88 \pm 0,054$ pg/ml ($p < 0,001$) ni tashkil qildi, nazorat guruhidagi bemorlarda esa bu koʻrsatkich $3,7 \pm 0,09$ pg / ml ni tashkil qildi. Androgen alopesiya bilan ogʻrigan bemorlarda 3-alfa-adiol-G darajasi M3 va U1 tiplari boʻlgan bemorlarda kasallikning ogʻirlik darajasi kuchayishi bilan sezilarli oshishi aniqlandi, C2-C3 tipida esa bu androgenning pasayish tendentsiyasi kuzatildi. Shunday qilib, androgen alopesiyaning C2-C3 tipida qondagi konsentratsiyasi $8,7 \pm 1,4$ pg/ml, M3 tipida – $14,6 \pm 1,7$ pg/ml ($p < 0,001$), U1 tipida – $26,5 \pm 2,5$ pg/ml ($p < 0,001$) ni tashkil qildi, nazorat guruhida esa bu koʻrsatkich $7,4 \pm 0,2$ pg/ml ni tashkil qildi (9-rasm).

Androgen alopesiya bilan ogʻrigan bemorlarning ushbu guruhida 3-alfa-adiol-G yosh toifasiga koʻra oʻrganildi, uning darajasi bemorlarning yosh toifasi ortishi bilan sezilarli darajada kamaydi. Shunday qilib, 30 yoshgacha boʻlgan androgen alopesiya bilan ogʻrigan bemorlarda erkin testosteron - androstanediol - 3-alfa-adiol-G koʻrsatkichi $25,8 \pm 6,4$ pg/ml ($p < 0,01$) ni, 31-40 yoshli bemorlarda – $18,1 \pm 2,2$ pg/ml ($p < 0,001$) ni va 41-53 yoshdagi bemorlarda - $17,1 \pm 2,0$ pg/ml ($p < 0,001$) ni tashkil etdi, nazorat guruhida esa bu koʻrsatkich $7,4 \pm 0,2$ pg/ml edi. Androgen alopesiya bilan ogʻrigan bemorlarda matriks metalloproteinazalar ingibitori faolligi yosh toifasi ortishi bilan sezilarli darajada kamaydi. Shunday qilib, 30 yoshgacha boʻlgan androgen alopesiya bilan ogʻrigan bemorlarda $2,17 \pm 0,36$ pg/ml ($p < 0,01$) ni, 31-40 yoshdagi bemorlarda - $1,04 \pm 0,02$ pg/ml ($p < 0,001$) ni va 41-53 yoshli bemorlarda - $0,52 \pm 0,09$ pg/ml ni ($p < 0,001$) tashkil etdi, nazorat guruhida esa bu koʻrsatkich $3,7 \pm 0,09$ pg/ml edi (1-jadval).

Androgen alopesiya bilan ogʻrigan bemorlarning qonida androstanediolning sezilarli darajada yuqori darajasi androgen alopesiya bilan ogʻrigan bemorlar boshining sochli qismi terisida androgenlarning metabolizmi yuqoriligini tasdiqlaydi, buning natijasida telogen bosqichidagi sochlarning koʻpayishi va ularning miniatyurizatsiyasi kuzatiladi. Matriks metalloproteinazalar ingibitorlarining past darajadagi faolligi soch follikulalari atrofida hujayradan tashqari matriksning biriktiruvchi toʻqimasini yoʻqotadigan matriks

metalloproteinazalarning faolligini oshiradi, bu to'qimalarning remodulyatsiyasiga olib keladi va soch follikulalarini regeneratsiyasi uchun noqulay muhit yaratadi.



9-rasm. Androgen alopesiya bilan og'rikan bemorlarda hujayradan tashqari matriksning ko'rsatkichlari va degidrottestosteronning to'qimalardagi faolligi darajasi


